

2-dars

Darsning mavzusi: Nutq haqida (4 – 6-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: nutqiy matn qismlarini o'zaro bog'lash, rasimga qarab hikoya tuza olish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, o'z fikrini mustaqil bayon qilgan holda ifodali va izchil nutq yaratish, nutq, gap, so'z haqidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda davlat ramzlariga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, tarixiy obidalar, mamlakatimiz boyliklari, ularni asrash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish; o'z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko'nikmasini shakllantirish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixor hissini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi hamda *“Diqqat bolalar!”* ta'limiy o'yini.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi: *Kitob – bilim bulog'i*

O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o'qitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o'quvchilarga *“Qaysi so'zda yoki shu so'zning qayerida imloviy xato qilib qo'yish mumkin?”* degan savol berish, o'sha so'zning yozilishi ustida ishlash lozim. Quyidagi savollarga o'quvchilardan javoblar olinadi.

1. Vatan timsollari deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ta'riflab bering.
4. "Nima?", "Nima qildi?", "Nima qiladi?" so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni toping.

"Diqqat bolalar" ta'limiy o'yini. Buning uchun o'quvchilar diqqat bilan o'qituvchining topshirig'ini eshitib darhol javob berishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi bir kichik matnni o'qiydi o'quvchilar esa matnda nechta gap ishtirok etganini aytishlari kerak. Har bir gapni ohangga rioya qilib, o'qib beriladi.

Ona yurtning – oltin beshiging. Xalq ona yurtini ana shunday ulug'laydi. Vatanning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uni sevishga, ardoqlashga da'vat etadi.

Darslik bilan ishlash.

4-mashq o'quvchilarga o'qitiladi. Berilgan vazifa ikki guruhga bo'lib bajariladi.

Birinchi guruh alohida gaplarni yozadilar: *Kitob o'qish jarayonida insonning bosh miyasi faol ishlaydi. Men kelajakda shifokor bo'lmoqchiman. Ko'p o'tmay, yomg'ir sharros quydi. Soliha besh yoshdan musiqa olamiga qadam qo'ygan.*

Ikkinchi guruh matnni topib yozadilar: *Olimpiada nima ekanligi, unda qanday sport turlari bo'yicha bellashuvlar bo'lishini siz yaxshi bilasiz. Vatanimiz bayrog'ini eng yuqoriga ko'targan yurtdoshlarimiz ham sizga sir emas. Olimpiada o'yinlarida munosib o'rin egallagan sportchilarimizga hamisha olg'a deb qolamiz.*

III. Yangi mavzu bayoni.

Har bir **gap** biror tugallangan fikrni ifodalaydi. Gapdagi so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'ladi.

Mavzu taqdimot yordamida tushuntiriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

5-mashq. "Bizning oilamiz" mavzusida kichik hikoya tuzing va yozing. Hikoyangiz nimalardan tuzildi? Siz fikringizni qay shaklda bayon qildingiz?

O'quvchilarga quyidagi namunada hikoya tuzdiriladi:

Har bir insonning o'z oilasi bor. Bizning oila sakkiz kishidan iborat. Buvam va buvim oilamizning tabarruk insonlaridir.

Dadam – shifokor. Onam – o'qituvchi. Opam, akam va men maktabda o'qiyamiz. Singlim esa bog'chaga boradi. Oilamiz juda ahil va inoq yashaydi.

Darslikda berilgan "Bu qiziq!" sahifasi o'quvchilarga o'qib eshittiriladi.

Sizningcha, nutqimizda unli tovushlarni ko'proq ishlatamizmi yoki undoshlarnimi? Balki nutqimizda unli va undosh tovushlar baravar ishlatiladi?

Buni bilish uchun oddiy amaliyot o'tkazing. Istalgan matndan yuzta tovushdan iborat bir nechta tanlaysiz va nechitasi unli, nechitasi undosh tovush ekanligini sanaysiz. Shunday qilsangiz, yuzta tovushdan taxminan ellik sakkiztasi undosh, qirq ikkitasi esa unli tovush ekanini aniqlaysiz. Demak, nutqimizda undosh tovushlar ko'proq ishlatiladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

6-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!